

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHEKNT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

YDK: 336.2(575.1)

NORBAYEV G‘OLIBJON TOXIROVICH

Mavzu: O‘zbekistonda byudjet- soliq siyosatini takomillashtirish masalalari

70410402 — “Davlat moliyasi va Xalqaro moliya”

Magistr
Akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: dotsent N.T. Tilabov

Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi
kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

Moliya

20 -sonli bayonnoma " 22 " aprel 2023 y.

Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.



imzo

sana

Ilmiy rahbar:

Tilabov N.T.




imzo

sana

Talaba:

Norboyev G.T.



imzo

sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil " 22 " may

No MEF-01/12 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi, milliy iqtisodiyotning yangi davr darajasiga ko'tarilishi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish va jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi byudjet va soliq siyosatini barqaror rivojlantirishni taqozo etmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan amalga oshirilmoqda. , jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, bevosita bog'liq. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi keltirilganidek "byudjet va tashqi qarzbarqarorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning imkoniyatlarini kengaytirishga birinchi darajali e'tibor qaratiladi". (Farmon 2022)

Bu masalalarni ijobiy hal etishda mamlakatimizning byudjet va soliq siyosatidagi ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari, ilmiy maqolalari, mavzu bo'yicha mahalliy normativ hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhini tayyorladik. Ilmiy ishlarning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida xalqaro islom moliyasi, islom qimmatli qog'ozlarini ekonometrik tahlil usullaridan foydalangan holda ilmiy jurnallardagi statistik ma'lumotlar asosida o'rgandik. Zamonaviy byudjet-soliq siyosatining mazmuni va mohiyati, turlarining dolzarb muammolari, uni takomillashtirish yo'llari bilan bog'liq masalalar tashkil etildi. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida byudjet va soliq siyosati bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: byudjet, soliq, davlat moliyasi, moliyaviy menejment, strategiya, moliyaviy nazorat, fiskal siyosat, moliya siyosati, maqsadli jamg'armalar, davlat byudjeti.

ABSTRACT

The consistent implementation of socio-economic reforms in our country, the rise of the national economy to the level of a new era, the establishment of export-oriented production industries and the rapid integration into the world economy require the sustainable development of the budget and tax policy. Currently, the socio-economic development of our country is being carried out with the implementation of tasks such as modernization of the economy, implementation of structural changes in production, introduction of modern techniques and technologies into economic sectors and, on this basis, achieving competitiveness, taking a strong place in world markets, increasing the export potential of our country. directly related. As stated in the new development strategy of Uzbekistan, "primary attention will be paid to ensuring budget and external debt sustainability, expanding the capabilities of local budgets." (Decree 2022)

Participation in the budget and tax policy of our country is also important in positively solving these issues.

In particular, we prepared a review of literature after studying other research works on the topic, opinions of local and foreign scientists, scientific articles, local regulatory documents on the topic. In order to increase the practical importance of scientific works, we studied international Islamic finance, Islamic securities using econometric analysis methods based on statistical data in scientific journals. Issues related to the content and nature of the modern budget-tax policy, current problems of its types, ways of its improvement were organized. Based on the studied and analyzed data, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on the budget and tax policy.

Key words: budget, tax, public finance, financial management, strategy, financial control, fiscal policy, financial policy, targeted savings, state budget.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	11
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.1. Kirish.....	13
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	14
2.3. Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	16
III BOB. METODOLOGIYA.....	20
3.1. Tadqiqot dizayni.....	20
3.2. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	20
3.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	21
3.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	21
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	21
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	21
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	23
4.1. O‘zbekistonda byudjet-soliq yuklamasini optimallashtirish orqali byudjet-soliq siyosatining tahlili	23
4.2. O‘zbekistonda byudjet siyosati yo‘nalishlarining amaldagi holati tahlili	27
4.3. O‘zbekistonda byudjet-soliq qo‘llanmani takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar va ularni belgilash yo‘nalishlari.....	41
4.4. O‘zbekistonning byudjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	48
4.5. Rivojlangan mamlakatlar byudjet-soliq siyosati tahlil.....	54
V BOB. XULOSA.....	61
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	62
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	64
5.3. Tadqiqot cheklolari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	67

I BOB. KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Byudjet-soliq siyosatining o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatib turishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bilamizki, yaqin o'tmishda mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga, ma'lum ma'noda, to'sqinlik qilib qolgan byudjet-soliq siyosati yurgizildi. Buning ustiga shu davrlar mobaynida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda faol byudjet-soliq siyosatning rolga yetarlicha baho berilmadi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida va eng avvalo, iqtisodiy sohada moliyaviy munosabatlarning roli buzib ko'rsatildi. Moliya va moliyaviy dastaklarning faol roli inkor etilib, byudjet-soliq siyosat talab etilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan zarur usullarni ishlab chiqishga o'jizlik qilib qoldi. Rivojlanishning uzoq davriga mo'ljallangan va ilmiy jihatdan asoslangan konsepsiyalarning ishlab chiqilmaganligi, kam samara beradigan, qisqa muddatli foyda olishni ko'zlab amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni qiyin ahvolga olib keldi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Byudjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Jumladan, 1 yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so'm mablag' qoladi. Lekin biznes muhitini yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o'zi yetarli emasligini" bildirishlari kelgusida ham O'zbekistonda byudjet siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish masalalari o'ta muhimligini anglatadi. (Murojaatnoma. 21.12.2022).

Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi(Qonun 2021) Qonuni qabul qilinganligi hamda yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi bilan byudjet-soliq siyosati tizimida qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Buni 2021 yil 1 yanvardan boshlab esa, Soliq kodeksining umumiy qismi bo'yicha